

BOYMIRZAYEV ZOKIRJON MASHRABBOYEVICH

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA EKSPORT
IMKONIYATINI OSHIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH
(Namangan viloyati misolida)

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

IQTISODIYOT FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Namangan – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of the Dissertation Abstract of doctor of philosophy (PhD) on
economics sciences**

Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida eksport imkoniyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Namangan viloyati misolida) .. 3

Боймирзаев Зокиржон Машраббоевич

Совершенствование организационно-экономического механизма повышения экспортного потенциала в деятельности малого бизнеса и предпринимательства (на примере Наманганской области) 29

Boymirzaev Zokirjon Mashrabboevich

Improving the organizational and economic mechanism increasing the export potential in the activities of small businesses and entrepreneurship (in the case of Namangan region) 55

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 61

BOYMIRZAYEV ZOKIRJON MASHRABBOYEVICH

**KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA EKSPORT
IMKONIYATINI OSHIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH
(Namangan viloyati misolida)**

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**IQTISODIYOT FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Iqt1526 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Namangan muxandislik texnologiya institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nammti.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Israilov Rustamjon Ibragimovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kazakov Olim Sobirovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.05.2020.I.66.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "10" 12 soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (0569) 228-76-71, faks: (0569) 228-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (325-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (0569) 228-76-71, e-mail: niei_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "21" 11 kuni tarqatildi.
(2024-yil "21" 11 dagi 18 raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.D.Sayitbayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sh.Z.Muxitdinov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

K.J. Matkarimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, i.f.n., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida global iqtisodiy siyosatning strategik maqsadi tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini jadal sur'atlarda rivojlanishini ta'minlash ustuvor ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, "tadbirkorlik sub'yektlarining rivojlangan mamlakatlarning yalpi ichki mahsulotidagi hisasi AQSHda 52-55%, Yaponiyada 52-57%, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 63-67%ni tashkil etadi. G'arbiy Yevropa mamlakatlarining xususiy sektorlarida faoliyat yuritayotgan 17,1 mln. korxonalarining 90,9%i biznes sub'yektlaridir. Umumiy sanoat hajmining 50%, xizmatlar sohasining qariyb 67%, qurilish va savdoning deyarli 90%i ular ulushiga to'g'ri keladi. Biroq jahondagi rivojlangan mamlakatlar eksportining atigi 30-40 foizi kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu ko'rsatkich AQSHda 30%, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 27%, Yaponiyada 15%ni tashkil etadi"¹. Rivojlangan mamlakatlarda faoliyat yurituvchi xo'jalik yurituvchi sub'yektlarining eksport imkoniyatini yanada oshirish o'zining ustuvor ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Jahonda global integratsiya va raqobatning kuchayib borishi sharoitida kichik biznes faoliyatida eksport imkoniyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Kichik biznes uchun maqsadga muvofiq eksport bozorlarini tanlash, eksportchilarning xalqaro bozorlarga kirish usullarini aniqlash, eksport uchun zarur bo'lgan infratuzilma va resurslarni baholash, kichik biznesni eksport faoliyatiga tayyorlash uchun kadrlarni tayyorlash, malaka oshirish va menejmentni takomillashtirish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligini oshirish, innovasion texnologiyalar va yangi biznes jarayonlarini joriy etish, hukumat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik, raqamli texnologiyalar va elektron tijorat, jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlarga moslashish bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangilanayotgan O'zbekistonda zamonaviy iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish, amaliyotda qo'llash, davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda ustivorlik kasb etadi. Davlat milliy iqtisodiyotining barcha soha va tarmoqlarini, ayniqsa tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ayniqsa mahsulotlarni xorijga eksport qiluvchilarga moliyaviy va institusional ko'mak berishga e'tiborni kuchaytirmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Respublikaning eksport imkoniyatini oshirish orqali 2026 yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSH dollarga yetkazish, shuningdek, O'zbekiston-2030 strategiyasining 55-maqsadida "Milliy iqtisodiyotning eksport imkoniyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish orqali eksport hajmini 2 barobar oshirish va 45 milliard dollarga yetkazish maqsad qilib olindi. Eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingtadan 15 mingtaga yetkazish"² vazifasi belgilangan. Tadbirkorlikga oid vazifalar ijrosini ta'minlash, ishlab chiqarishni diversifikatsiya va modernizatsiya qilish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, davlat

¹ MSME Day 2022. <http://www.intracen.org/MSME-day/2022/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi «O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni

tomonidan eksport qiluvchi tadbirkorlik sub'yektlarini faol qo'llab-quvvatlash zamirida respublikaning eksport imkoniyatini oshirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son «O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida», 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2022 yil 30 sentyabrdagi PF-228-son «Tadbirkorlik sub'yektlarining eksport imkoniyatini yanada kengaytirish to'g'risida», 2022 yil 9 noyabrdagi PF-244-son «Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2022 yil 27 iyuldagi PF-178-son «Tadbirkorlik sub'yektlari bilan samarali muloqot tizimini joriy etish va ularning huquqiy himoyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2022 yil 8 apreldagi PF-101-son «Tadbirkorlik muxitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida»gi farmonlari, 2023 yil 4 sentyabrdagi PQ-292-son «Tadbirkorlar bilan 2023 yildagi «ochiq muloqoti»da belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli bo'lgan boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining uctovor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertasiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.«Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish» ustovor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari eksport imkoniyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini nazariy, amaliy va uslubiy asoslari xorijiy iqtisodchi olimlardan A.Smit, J.B.Sey, R.Kantilon, Y.Shumpeter, R.Xizrich, M.Piters, A.Xosking, L.Vodachek, P.Druker, L.Mizes, E.Xargadon asarlarida keng yoritilgan³. MDH mamlakatlari olimlaridan V.V.Mazruk, N.K.Mkrtichyan, N.A.Krikovseva, V.V.Radayev, V.M.Vlasova, A.M.Samozkin, V.G.Medynskiy, G.Sharshukova, D.G.Suxix, V.M.Kas, P.I.Levshov va boshqalar kichik biznesning eksport imkoniyatini oshirish tadqiqotiga e'tibor qaratganlar⁴.

³ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов.–М.: 1976.-332 с.;Сей Ж.Б. Трактат политической экономии – М.: Экономика. 1980.-217 с.;Кантлон Р. Основы предпринимательской деятельности.- М.: 1994. – 144 с.;Шумпетер Й. Теория экономического развития. –М.:1982.–230 с.; Хизрич Р. Питерс М. Предпринимательство. Вып 1. –М.: 1998.– 126 с.; Хоскинг А. Курс предпринимательства.- М.:Международные отношения, 1993. - 273 с.; Водачек Л., Водачкова. Стратегия управления инновациями на предприятии. – М.: Экономика, 2004.-365с.; Друкер П. Управление бизнесом. – М.:Алпина Диджитал, 2016. –250 с.; Мизес Л. Теория и история: Интерпретация социально-экономической эволюции. –М.: Юнити-дана, 2001 -295 с.;Харгадон Э. Управление инновациями. Опыт ведущих компаний. –М.:ИД Вилиамс, 2007.340 с.

⁴ Мазурик В.В. «Основные этапы разработки и реализации экспортной стратегии предприятия», стр. 152-153, научная электронная библиотека «КиберЛенинка», www.киберленинка.ру, Н.К.Мкртчян «Стратегия управления экспортом товаров малого и среднего бизнеса и пути повышения её эффективности.123с,Дисс...к.э.н Е.2017. Криковцева Н.А., Корол Л.А. «Стимулирование экспорта продукции»,архив научных публикаций,http://www.руснаука.com/11_ЕИСН_2010/Есономисс/63517.Радаев В.В. Экономика переходного периода. Учебное пособие.-М.:1995.-456 с.; Власова В.М. Основы предпринимательской деятельности. –М.: Финансы и статистика 1996.-106 с.; Самозкин А.М. и др. Теория и

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo'li orqali eksport imkoniyatini oshirish masalalari mamlakat iqtisodchi olimlaridan M.Sharifxo'jayev, S.S.G'ulomov, A.O'lmasov, A.Vaxobov, Yo.Abdullayev, B.Yu.Xodiyev, M.S.Qosimova, Sh.N.Zaynutdinov, A.Sh.Bekmurodov, D.N.Raximova, N.Q.Yo'ldoshev, A.G'ofurov, M.R.Boltabayev, B.K.G'oyibnazarov, S.K.Salayev, Sh.Ergashxodjayeva, U.V.Gafurov, D.A.Artiqova, D.S.Alimatova, M.Ibragimova, Sh.Yuldashev, N.J.Nosirova va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan⁵.

Mazkur tadqiqotlarda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishning nazariy-metodologik asoslari, eksport imkoniyatini oshirish masalalariga alohida urg'u berilgan. Ammo bugungi kun talabidan kelib chiqib, tadbirkorlik sub'yektlarining eksport imkoniyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi elementlari, ya'ni rag'batlantirish, moliyalashtirish, rejalashtirish samaradorligini oshirish, baholash ko'rsatkichlari tizimini eksport imkoniyatiga ijobiy ta'sirini aniqlash yetarlicha o'rganilmagan.

Mazkur masalaning nazariy-metodologik va amaliy jihatlarini tadqiq etish, unga ta'sir etuvchi tashqi-ichki omillarini o'rganish, eksportda samaraga erishish uchun nimalarga e'tibor berish kerakligi kam o'rganilgan. Viloyat hududlarini eksport imkoniyatini o'ziga xos xususiyatlarini o'rgangan holda tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashi borasida tadqiqot olib borilmagan. Shu nuqtai nazardan mavzuni tadqiq etish, ilmiy izlanishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Dissertasiya mavzusining dissertasiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertasiya tadqiqoti Namangan muhandislik texnologiya institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, ITM-6 «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

практика бизнеса. –М.: РФА.1997.–230 с.; Медынский В. Г., Шаршукова Л. Г. Инновационное предпринимательство: Учеб. пособие. –М.: ИНФРА-М, 1997. -237 с.;Д.Г. Сухих, В.М. Кац Методики оценки экспортного потенциала предприятия.Российский опыт.Вестник науки Сибири 2015 №2(17) стр.62-75 .Левашов П.И «Развивающиеся страны: позиции в мировом экспорте», Международный журнал «Проблемы теории и практики управления», Официальное издание Международного научного-исследовательского института проблем управления, 2/2014, www.uptp.ru, стр. 49-57.

⁵Sharifxo'jayev M., Abdullaev Yo. Menejment. Darslik. –T.: 2003. -37 b.; G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. –T.: 2002. -256 b.; O'lmasov A., Vaxobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. –T.:“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2006. 40- b. Abdullaev Yo. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari, 100 savolga - 100 javob. –T.: Mexnat. 2002. -157 b.; Xodiev B.Yu., Qosimova M.S. va boshqalar. Kichik biznesni boshqarish. –T.: 2003. –258 b.; Xodiev B.Yu. O'zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik rivojini ekonometrik modellashtirish.: I.f.d. dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2000. -42 b.; Zaynutdinov Sh.N. Innovatsionnyy menedjment. –T.: Akademiya, 2006. -267 s.; Bekmurodov A.Sh., Yo'ldashev N.K. Menejment. O'quv qo'llanma. –T.: «Fan». 2004. – 65 b.; Ergashev F., Raximova D., Sagdullaev A., Parpiev O., Zaynutdinov Sh. Innovatsion menedjment. Darslik. T.: Akademiya, 2005. -90 b.; G'ofurov A. Kichik xo'jalik yurituvchi tadbirkorlik sub'yektlarini rivojlantirishning mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari. Monografiya. Farg'ona: 2008.-74 b.; Boltaboev M.R., G'oyibnazarov B.K., Otajonov Sh.I. Kichik biznes va tadbirkorlik.O'quv qo'llanma. -T.:2011.-43 b.; Salaev S.K. Kichik biznes rivojlanish tendensiyalarini modellashtirish va bashoratlash. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: 2007.-14 b.;Sh.J.Ergashxodjaeva. Innovatsion marketing. – T.:Cho'lpon, 2014. – 178 b.; Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.: iqt.fan.dok diss. -T. O'zBMA. 2017. – 274 b.;Ibragimova M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tarkibiy o'zgarishlar asosida samaradorligini oshirish. i.f.b.f.d. diss. avtoref.-T.TDIU. 2018. – 54 b.;Abdullaev Yo.,Yuldashev Sh. Малы́й бизнес и предпринимательство. – T.: Iqtisod-moliya, 2008. – 339s,Nosirova N.J “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik su'ektlarinig eksport salohiyatini oshirish” i.f.b.f.d. diss. avtoref.-T.TDIU. 2022 28 b

Tadqiqotning maqsadi kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida eksport imkoniyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatining, hududiy eksport imkoniyati asosini tashkil etuvchi tashkiliy iqtisodiy mexanizm elementlarini takomillashtirish va rivojlantirishning nazariy- metodologik asoslarini o'rganish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari hududiy eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish tizimining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari eksport imkoniyati ko'rsatkichlari samaradorligini baholash metodlari tizimini uslubiy asoslarini tadqiq etish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari eksport mahsulotlar ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi omillarni bir tizimga solib guruhlash;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari maxalliy eksport imkoniyatini baholashni ko'p omilli ekonometrik tahlilini amalga oshirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari hududiy eksport imkoniyatini yanada oshirish mexanizmi tarkibiy elementlarini tizimlashtirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan eksport mahsulotlari ishlab chiqarish istiqbollari aniqlash va prognozlashtirish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida Namangan viloyatida eksport faoliyati bilan shug'ullanayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari olingan.

Tadqiqotning predmeti kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari mahalliy eksport imkoniyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik, ekonometrik, monografik tahlil, guruhlash, solishtirma tahlil, tanlanma kuzatuv, qo'yilgan muammolarga mantiqiy yondashuv va olingan ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish, korrelyasion va regression tahlil va istiqbolli prognozlash kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "eksport imkoniyati" tushunchasining iqtisodiy mazmuni kompaniya yoki mamlakatning tovarlarini yoki xizmatlarini xorijiy bozorlarga sotish va yetkazib berishga ta'sir etuvchi omillardan foydalanishni mikro va hududiy darajadagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning o'zaro muvofiqligini ta'minlash asosida kengaytirish nuqtai-nazaridan takomillashtirilgan;

viloyat kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatida eksport imkoniyatidan samarali foydalanishda hududiy eksportni tartibga soluvchi tashkilotlar tomonidan ichki va tashqi omillar, asosiy va aylanma fondlari hamda IT lokal tarmoq resurslaridan foydalanishni baholash orqali ustuvor yo'nalishlarni ishlab chiquvchi tahliliy-maslahat guruhi faoliyatini yo'lga qo'yish taklifi asoslangan;

hududlarda yalpi hududiy mahsulotlar hajmi (4,19% < E > 7,46%), to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar (0,12% < E > 0,18%) hamda inflyasiya (-

0,04% < E > -0,05%)ning qisqa va uzoq muddatli davr oralig'ida ta'sir qilish darajalarini o'zaro muvofiqlashtirish orqali mahsulot eksporti imkoniyatini oshirish taklifi asoslangan;

Namangan viloyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari barqaror rivojlanishining ko'p omilli ekonometrik modellari, ta'sir etuvchi omillar va ta'sirchanlik koeffitsiyentlari orqali eksport imkoniyatini oshirishning 2030 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kichik biznes barqarorlik darajasi ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanishning miqdor va sifat jihatlarini aniqlashga qaratilgan ko'rsatkichlarni baholash tizimining metodologiyasi ishlab chiqilgan;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining hududiy darajada eksport imkoniyatini oshirish mexanizmi asoslangan;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar bir tizimga keltirib aniqlangan;

kichik biznesning umumiy barqarorligi, sohaga yo'naltirilgan investisiyalar, innavasion texnologiyalar transformasiya o'zgarishiga mutanosibli, barqaror rivojlanishda zarur bo'lgan komponentlarni aniqlashga imkon berishi va sub'yektlarning eksport imkoniyatini oshirish taklifi asoslangan;

kichik biznesni barqaror rivojlanishiga olib keluvchi eksport amaliyotining kengayishi, mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishiga va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini ko'payishiga, mahalliy, respublika byudjeti daromadlarini joriy istiqbolda yuksalishi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularni iqtisodchi olimlar va mutaxassislarning eksport sohasidagi tashkiliy iqtisodiy mexanizm hususidagi ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish, axborotlar bazasining milliy va xalqaro nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalaridan olinganligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining ma'lumotlari hamda boshqa rasman e'lon qilingan amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadbirkorlik sub'yektlarining faoliyatida eksport imkoniyatini amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi elementlaridan samarali foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalardan respublikada tadbirkorlikni iqtisodiy imkoniyatidan unumli foydalanish orqali aholini doimiy bandligi, barqaror daromad manbaiga ega bo'lish bilan makroiqtisodiy vaziyatni barqarorlashtirish, madaniy-ma'naviy farovonlikka erishish, eksportni ko'paytirishga qaratilgan dasturiy xujjatlar ishlab chiqish, prognoz ko'rsatkichlarini asoslash, shuningdek, kichik biznesga oid darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida eksport imkoniyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "eksport imkoniyati" tushunchasining iqtisodiy mazmunini kompaniya yoki mamlakatning tovarlarini yoki xizmatlarini xorijiy

bozorlarga sotish va yetkazib berishga ta'sir etuvchi omillardan foydalanishni mikro va hududiy darajadagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning o'zaro muvofiqligini ta'minlash asosida kengaytirish nuqtai-nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Iqtisodiyot va menejment" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil

13 maydagi 166-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda mikro va hududiy darajadagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning o'zaro muvofiqligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan "eksport imkoniyati" tushunchasining iqtisodiy mazmuni bo'yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

viloyat kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatida eksport imkoniyatidan samarali foydalanishda hududiy eksportni tartibga soluvchi tashkilotlar tomonidan ichki va tashqi omillar, asosiy va aylanma fondlari hamda IT lokal tarmoq resurslaridan foydalanishni baholash orqali ustuvor yo'nalishlarni ishlab chiquvchi tahliliy-maslahat guruhi faoliyatini yo'lga qo'yish taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tarkibidagi tadbirkorlik sub'yektlarining eksport faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2024 yil 17 sentyabrdagi 13/04-10-25-14464-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida Namangan viloyatdagi kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarining eksportdagi hissasini 1,7 foizga o'stirish imkoni yaratilgan;

hududlarda yalpi hududiy mahsulotlar hajmi (4,19% < E > 7,46%), to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar (0,12% < E > 0,18%) hamda inflyasiya (-0,04% < E > -0,05%)ning qisqa va uzoq muddatli davr oralig'ida ta'sir qilish darajalarini o'zaro muvofiqlashtirish orqali mahsulot eksporti imkoniyatini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tarkibidagi tadbirkorlik sub'yektlarining eksport faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2024 yil 17 sentyabrdagi 13/04-10-25-14464-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida tadbirkorlik sub'yektlarining eksport imkoniyatiga ta'sir etuvchi ijobiy omillar hisobiga eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2,3 foizga oshirish imkoni yaratilgan;

Namangan viloyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari barqaror rivojlanishining ko'p omilli ekonometrik modellari, ta'sir etuvchi omillar va ta'sirchanlik koeffitsiyentlari orqali eksport imkoniyatini oshirishning 2030 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tarkibidagi tadbirkorlik sub'yektlarining eksport faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2024 yil 17 sentyabrdagi 13/04-10-25-14464-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida Namangan viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari barqaror rivojlanishi bo'yicha dasturlarning asosiy parametrlari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Mavzuga oid 15 ta ilmiy ish, jumladan, OAK tomonidan e'tirof etilgan ilmiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola, xorijiy jurnallarda 3 ta va 9 tasi respublika jurnallarida e'lon qilingan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning umumiy hajmi 122 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, ob'yekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertasiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiya ishini "**Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishning nazariy metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni eksport imkoniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati o'rganilgan, Ularning eksport salohiyatini shakllantirish xususiyatlari tadqiq etilgan, xorijiy mamlakatlardagi kichik biznes korxonalarida eksport mahsulotlar ishlab chiqarish tajribalari o'rganilgan va mamlakatimiz korxonalarida qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Jahon xo'jaligining shakllanishi barcha iqtisodchilar oldiga xalqaro iqtisodiy munosabatlarda qatnashishning foydali yoki foydasiz ekanligini aniqlash muammosini qo'ygan. Mazkur muammoga birichilardan bo'lib qo'l urganlar merkantalistlar hisoblanadi, ular g'oyasiga qaraganda boylikni jamg'arish uchun davlat imkon darajasida, ko'proq tashqi bozorlarda mahsulot, xizmatlarni sotish, qandoq sotib olish lozim ekanligini ta'kidlaydilar.

Merkantalistlarning jamiyatni iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda tashqi iqtisodiy aloqalarni rolga oid g'oyalarni klassik maktabning ko'zga ko'ringan vakili A.Smit o'zining asarida ...biron-bir mamlakat o'zga mamlakatni mahsulotini o'zida ishlab chiqarishga qaraganda, mazkur tovarni o'zga mamlakatdan harid qilib, o'zida shu tovarni ishlab chiqarishga sarflanadigan mehnatni boshqalar ehtiyojini qondira oladigan, ustunligi yuqori bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishga sarflangani ma'qul deydi.

Iqtisodiyot qonuniga muvofiq ko'proq mehnat sarflangan, qayta ishlangan mahsulot (zanjirsimon qiymatni shakllantirish) larni sotish ming marta afzal. Masalan, korxonalarda kalavadan tayyor mahsulot qilib sotish ma'qul, arzon taqchil mollarni xarid qilish zarur, Darvoqe tashqi savdoni amalga oshirilayotganda eng asosiy mezon sifatida maydonga narxlar chiqadi. U oddiy narx emas, balki ichki hamda jahon narxlari o'rtalariga nisbat ekanligini e'tibordan qochirish kerak. A.Smit fikriga qaraganda dunyo savdosini amalga oshirishdagi eng muhim jihat, bu ularni ishlab chiqarish uchun sarflangan absalyut xarajatlar o'rtasidagi nisbatdir. Uning muhim nazariyasi absalyut xarajatlar tamoyiliga asoslangan

bo'lib, qayerda xarajat kam bo'lsa, mahsulotni shu yerdan sotib olgan ma'qul. Mazkur muammolar yechimini topishda D. Rikardoning qarashlari o'zgacha. Uning fikricha xalqaro miqiyosda tovar ayrboshlash uchun xarajatlar o'rtasida absalyut farq bo'lishligi unchalik shart emas. Tovar ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar o'zaro bir-biriga taqqoslaganda nisbiy farq bo'lishligi kifoya. Xarajatlar nisbiyligi prinsipi-o'zaro manfaatlar prinsipidir. Shuningdek D. Rikardo mahsulot ishlab chiqarishda absalyut miqdorga qarab emas, balki qiyosiy samaraga qarab fikr yuritish lozimligini ta'kidlaydi. Mutlaq ustunlik (afzallik) bir hil resurs sarflash evaziga bir mamlakatda ikkinchi mamlakatga qaraganda ko'p mahsulot ishlab chiqarish yoki bir hil mahsulot ishlab chiqarish uchun kam xarajat qilishda ifodalanadi.⁶

Mazkur model turli mamlakatlarda ishlab chiqarish potensialini turlichaligini farqi, nisbiy xarajatlar o'zgarishini doim ham hisobga olavermaydi. Shu bois mavjud nazariyaga Eli Xeksher hamda Bertil Olinlar qo'shimcha qilib boyitdilar. Ularning fikricha tashqi savdo oddiy unumdorlikdagi farq natijasigina emas, ana shu omillar narxidan farq juda muhim ahamiyatga ega.

Xeksher-Olin nazariyasining muhim jihati ...mamlakat ishlab chiqarish omillaridan qaysi biridan samarali foydalanilsa shu omillarning ulushi ko'p bo'lgan tovarlarni eksport qiladi, qaysi ishlab chiqarish omili taqchil bo'lsa, shu omil asosiy o'rin tutadigan tovarlarni import qiladi.⁷

Mazkur nazariya xulosalaridan o'zining ilmiy-tadqiqotida unumli foydalangan taniqli iqtisodchi V. Leontyev hisoblanadi. O'zining "xarajatlar-ishlab chiqarish" modelida ...AQSH eksportida mehnat sig'imi yuqori, importida esa kapital sig'imi tovarlar ustunligini asoslab bergan. Buni "Leontyev paradoksi" deb yuritiladi.

Birinchidan ishlab chiqarish omillari sifat jihatdan bir hil emas. Unga binoan sanoati rivojlangan mamlakatlardan mahsulot eksportida mehnat sig'imi yuqori bo'lgan tovarlar emas, balki yuqori malaka talab qiladigan tovarlar eksport qilinadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa buning aksi. Yuqori mehnat talab etadigan mehnat sig'imi yuqori bo'lgan tovarlar eksport qilinadi.

Ikkinchidan tabiiy resurlardan unumli foydalanish, o'zlashtirish bilan bog'liq katta miqdorda kapital talab qiladi. Bu undirma sanoat tarmog'i bilan bog'liq bo'lib, kapital sig'imi boshqa milliy iqtisodiyot tarmoqlariga nisbatan ustun.

Uchinchidan, davlat tomonidan yuritilayotgan iqtisodiy siyosat nisbatan taqchil ishlab chiqarish omillari intnsiv ishlatilayotgan tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash yo'li bilan xalqaro ixtisoslashuvga ta'sir etadi.

Aniqlanishicha bugungi kunda sanoati rivojlangan mamlakatlar ixtiyoridagi ishlab chiqarish resurslari tarkibining tenglashib borayotgani hamda xalqaro miqiyosda alternativ tovarlar hajmining o'sishi jahon bozorida yangi tendensiyalarni vujudga kelishi uchun imkoniyat yaratib berdi.

Kichik biznes sub'yektlari tomonidan eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy metodologik asoslari biznesning xalqaro bozorlarga chiqishini ta'minlash, mahsulotlarning sifati va raqobatbardoshligini oshirish

⁶ Д.Тожибоева. "Иqtisodiyot nazariyasi". Ikkinchi kitob OTM talabalari uchun o'quv qo'llanma. -T.: "Sharq", 2003. -378 bet.

⁷ D.Тожибоева. "Иqtisodiyot nazariyasi". Ikkinchi kitob OTM talabalari uchun o'quv qo'llanma. - T.: "Sharq", 2003. -381 bet.

hamda samarali biznes modellarini ishlab chiqish uchun muhimdir. Jumladan: Bozor tadqiqoti va tahlil, strategik rejalashtirish, mahsulotlarni moslashtirish va innovasiyalar, sertifikatlashtirish va sifat nazorati, logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvi, marketing va mijozlar bilan aloqalar, Davlatning roli va qo'llab-quvvatlashi, faoliyatni tahlil qilish va baholash. Ushbu nazariy metodologik asoslar kichik biznes sub'yektlari uchun eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni xalqaro bozorlarda samarali sotishga yordam beradi. Ular biznesning barqaror rivojlanishi va global raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Tadqiqotlar natijasida, eksport imkoniyatini oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar qo'yidagilar hisoblanishi aniqlandi: Jumladan; investisiya oqimi, xorijiy bozorlarga chiqishda hukumat yordami, valyutani erkinlashtirish va soliq imtiyozlari, importdagi imtiyozlar, eksportdagi imtiyozlar, malakali mutaxassislar, shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining eksport faoliyatining notekis o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar ham aniqlandi:

1. Malakali mutaxassislarning yetarli emasligi, ayniqsa, marketing mutaxassisligiga oid xodimlarning yetishmasligi.

2. Mahsulotlarning raqobatbardoshlik darajasining, ya'ni jalb etuvchanlik va jozibadorligining pastligi.

3. Texnika va texnologiyalarning normativ ko'rsatkichlari qoniqarli emasligi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ta'riflash kerakki "eksport imkoniyati" tushunchasining iqtisodiy mazmuni kompaniya yoki mamlakatning tovarlarini yoki xizmatlarini xorijiy bozorlarga sotish va yetkazib berishga ta'sir etuvchi omillardan foydalanishni mikro va hududiy darajadagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning o'zaro muvofiqligini ta'minlash asosida kengaytirish maqsadga muvofiqdir.


Muammolarni hal etish uchun kichik biznes korxonalarida eksport imkoniyatiga ta'sir etuvchi omillarni to'la o'rganish va eksport imkoniyatini amalga oshirish mamlakatning tovarlarini yoki xizmatlarini xorijiy bozorlarga sotish va yetkazib berishga ta'sir etuvchi omillardan foydalanishni mikro va hududiy darajadagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning o'zaro muvofiqligini ta'minlash zarur (1-rasm).

Taklif etilayotgan mexanizmning birinchi yo'nalishi **mikrodarajadagi** chora-tadbirlarni qamrab oladi. Ular:

-kichik biznes korxonalarining o'zaro kooperatsiya aloqalarini yo'lga qo'yish bilan bog'liq;

-mavjud ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish;

-kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatiga axborot texnologiyalari tizimini joriy etish;



1-rasm. Eksport salohiyatini oshirish mexanizmi

- eksportbop mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari ishlab faoliyatiga standartlash,sertifikatsiyalash tizimini joriy etish;

- eksport mahsulotlari ishlab chiqaruvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini ishlab chiqarish faoliyatida muqobil energiya manbalaridan foydalanishni yo'lga qo'yishdan iborat;

Taklif etilayotgan mexanizmning ikkinchi yo'nalishi **hududiy darajadagi** chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Ta'kidlash lozimki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda hududning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatdan unumli foydalanish muhim.Jumladan:

-kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning hududiy dasturini mintaqa xususiyatiga mos ravishda ishlab chiqish;

-hududiy-sohaviy xususiyatiga ko'ra ishlab chiqarish tizimini tashkil etish;

-institusional asoslarni yanada kengaytirish;

-yirik korxonalar bilan kichik korxonalar integratsiyasiga erishish;

-korxonalarining ishlab chiqarish guruhlarini tashkil etish;

-monitoring tizimini to'liq shakllantirib borish evaziga jahonga chiqish;

-innovation faollikni oshirish,mehnat innovatsiyasi va mehnat menejmenti munosabatlarini takomillashtirish orqali sifat ko'rsatkichiga erishish;

-tadbirkorlarga standartlashtirish texnik-iqtisodiy ma'lumotlarni kodlash va klassifikatsiya berish masalalari bo'yicha uslubiy va amaliy yordamlarni kengaytirish;

-mahalliy o'zini-o'zi boshqarish idoralari tomonidan qo'llab-quvvatlashni faollashtirish, shu jumladan, mahalliy miqyosda amal qiladigan soliq imtiyozlarini ishlab chiqish;

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishini takomillashtirish yo'nalishlaridan yana biri sifatida eksport imkoniyatini boshqarishni takomillashtirishni keltirish mumkin deb hisoblaymiz.

Tadbirkorlik korxonalarining eksport imkoniyatidan samarali foydalanish mexanizmida tashqi iqtisodiy faoliyatini atroflicha tahlil qilamiz.(2-rasm). Bunda ichki omillar, tashqi omillar hamda korxonada foydalanadigan barcha resurslarni olingan. Ularning tashqi iqtisodiy faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki omillar quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. Maqsad va vazifalar;

2. Ishlab chiqarish strukturasi;


3. Boshqaruv strukturasi;

4. Texnika va texnologiya;

5. Xodimlardan iborat

Bizga ma'lumki, maqsad o'zgaruvchi bo'lib, tadbirkorlik faoliyatining istiqboldagi holatini belgilab beradi.

Tadbirkorlik faoliyatida rejalashtirishning asosiy va eng muhim bosqichlaridan biri ularning maqsadlarini tanlashdir.Shuni ta'kidlab o'tish zarurki, kichik tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi korxonalar ko'p bo'g'inli tizimlarda keng ifodalangan maqsadlarga ega bo'ladilar. Kichik biznes korxonalari faoliyati davomiyligini ta'minlash uchun tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy, siyosiy omillarni hisobga olishlari kerak.



2-rasm. Tadbirkorlik korxonalarining eksport imkoniyatidan samarali foydalanish mexanizmi⁸


Bunda boshqaruv faoliyatini samarali tarzda amalga oshirish, ishlab chiqarishni tashkil etish, tarkibiy tuzilmalar, me'yoriy huquqiy asoslarni talabga muvofiq shakllantirish kabi muhim, shuningdek iqtisodiy mexanizmni boshqarish funksiyalari, moliyalashtirish, rag'batlantirish, rejalashtirish, me'yorlashtirish kabi omillarni ham inobatga olish kerak. Inson omiliga e'tibor qaratilishi, mehnat va dam olish sharoitlarini yaratish, me'yorlarni hisobga olish va amal qilish hamda barcha xodimlarni ijtimoiy himoya qilish singari omillar kichik biznes korxonalarini faoliyatining davomiyligiga ta'sir ko'rsatadi.

Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillar quyidagilardan iborat bo'ladi: qonunlar, raqobatdoshlar, ta'minotchilar, iste'molchilar hamda bozor omillari. Tadbirkorlik korxonalarini o'zlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini tashkil etishda ochiq tizim ekanliklarini e'tiborga olgan holda bu omillarni hisobga olishlari va

⁸ Muallif ishlanmasi

taktika hamda strategiyani qabul qilishda ularga munosib tarzda javob qaytara oladigan tizim yaratishlari talab etiladi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatida eksport imkoniyatidan samarali foydalanishda hududiy eksportni tartibga soluvchi tashkilotlar tomonidan ichki va tashqi omillar, asosiy va aylanma fondlari hamda IT lokal tarmoq resurslaridan foydalanishni baholash orqali ustuvor yo‘nalishlarni ishlab chiquvchi tahliliy-maslahat guruhi faoliyatini yo‘lga qo‘yish mexanizmi ishlab chiqilgan.(3-rasm).



3-pasm. Tahliliy-maslahat guruhi faoliyatini yo‘lga qo‘yish mexanizmi

Dissertasiya ishining “**Kichik biznes korxonalarining eksport faoliyati va uni rivojlantirish masalalari**” deb nomlangan ikkinchi bobida Namangan viloyatida tashqi iqtisodiy faoliyatni iqtisodiyotga ta’siri tahlil qilingan, tashqi iqtisodiy faoliyatda kichik biznesning roli va ta’siri mexanizmi o‘rganilgan, kichik

biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari faoliyati rivojlanishining ko'p omilli ekonometrik modeli yaratilgan va istiqbolini belgilash bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Viloyatni 2017-2023 yillardagi tashqi savdo aylanmasi ko'rsatkichlarida barqaror o'sish tendensiyalari kuzatilgan bo'lib, tahlil etilgan yillar oralig'ida 7384,8 million AQSH dollarini, shundan eksport 2817,7 million dollarni yoki mamlakat eksportidagi ulushi 3,0 foiz bo'lgan. Tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 2017-2023 yillar oralig'ida 1650,1 million AQSH dollarlik mahsulot eksport qilingan, bu viloyat eksportini o'rtacha 58,6 foizini tashkil etgan. Viloyat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini o'rni beqiyosdir. Viloyatning 2023 yildagi eksport hajmi 558,4 million AQSh dollarini tashkil etgan yoki o'tgan 2022 yilga nisbatan 96,1 foizni tashkil etgan. Shundan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining 2023 yildagi eksporti 242,5 million AQSh dollarni, o'tgan yilga nisbatan o'sish 92,3 foizni tashkil etgan. 2023-yilda viloyatning MDH davlatlari bilan tashqi savdo aloqalarida, eksportning o'sish dinamikasi 100,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, boshqa xorijiy davlatlar bilan 127,9 foizga o'sish kuzatilgan (1- jadval)

1-jadval

Namangan viloyatining 2017-2023 yillardagi tashqi iqtisodiy faoliyati dinamikasi⁹

(mln AQSH dollari)

Ko'rsatkichlar	Yillar							2017yilga nisbatan(%)
	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	
Viloyat tashqi savdo aylanmasi	573,6	1202,5	987,6	873,9	1091	1276,1	1380,1	240,6
Eksport	196,7	247,4	357,3	380,5	496,2	581,2	558,4	283,9
Shu jumladan: KBS eksporti	176,0	199,2	283,2	233,1	253,5	262,6	242,5	137,8
Import	376,9	955,1	630,3	493,4	594,8	694,9	821,7	218,0
Qoldiq (+,-)	-180,3	-707,7	-273	-112,9	-98,6	-113,7	-263,3	X

Viloyatda eksportga yo'naltirilgan mahsulot turlari yildan-yilga ko'payib borishi kuzatildi. Birgina 2023 yilning o'zida 350 turdan ortiq mahsulotlar dunyoning 81 mamlakatlariga eksport qilingan. Tovarlar turlari bo'yicha eksportning ustuvorligi, oziq-ovqat mahsulotlari, turli hil tayyor mahsulotlar, sanoat mahsulotlari hissasiga to'g'ri kelgan. Tahlilda sanoat tarmog'ining drayveri hisoblangan yengil sanoatda, paxta xom ashyosi o'rniga, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlarni yaratishga ustivorlik berilgan. (2-jadval).

2-jadval

Namangan viloyatida eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar tarkibi

(mln.AQSH dollari)

⁹ Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

№	Eksport mahsulotlar tarkibi	Yillar							O'tgan yilga nisbatan	
		2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	Farqi	%
1	Oziq-ovqat mahsulotlari	73,3	86,1	126,0	104,5	86,3	106,0	86,7	-19,3	81,8
2	Kimyo mahsulotlari va buyumlari	0,21	1,1	1,5	5,5	5,5	15,4	5,2	-10,2	33,8
3	Sanoat mahsulotlari	78,2	95,4	138,0	170,0	267,1	302,0	276,9	-25,1	91,7
4	Mineral yoqilg'i va moylash materiallari	0,04	0,02	3,3	0,4	1,2	1,1	3,7	2,6	336,3
5	Xom ashyo yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat	0,5	0,8	1,2	10,2	12,8	8,9	8,6	-0,3	96,6
6	Mashina va asbob uskunalar	0,4	5,2	15,3	8,2	10	10,2	18,2	8,0	178,4
7	Turli hil tayyor mahsulotlari	38,9	46,6	60,5	73,3	96,3	121,1	136,2	15,1	112,5
8	Xizmatlar	5,4	11,9	11,1	8,0	16,5	15,2	8,7	-6,5	57,2
9	Ichimliklar va tamaki	0,2	0,3	0,4	0,4	0,5	0,4	3,1	2,7	80,0
10	Boshqalar	-	-	-	-	-	-	11,1	11,1	111,0
	Jami eksport	196,7	247,4	357,3	380,5	496,2	581,2	558,4	-22,8	96,1

Amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida, birgina to'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xom-ashyosi o'rniga, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 308,6 mln.AQSH dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 52.5 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 20,5 % ga kamaydi. Keyingi o'rinda turli hildagi tayyor mahsulotlar 136,2 mln.dollar(yoki viloyat eksportini 24,4 foizni),oziq-ovqat mahsulotlari eksporti 86,7 mln. dollar (15,5 foizni), mashina va asbob uskunalar eksporti esa 18,2 mln. dollar yoki 3,26 foizdan iborat bo'lgan bo'lsada 2022 yilga nisbatan eksport 22,8 mln dollarga pasaygan.

Hududlarda yalpi hududiy mahsulotlar hajmi (4,19% < E > 7,46%), to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar (0,12% < E > 0,18%) hamda inflyasiya (-0,04% < E > -0,05%)ning qisqa va uzoq muddatli davr oralig'ida ta'sir qilish darajalarini o'zaro muvofiqlashtirish orqali mahsulot eksporti imkoniyatini oshirish taklifi asoslandi.

Tahlil orqali viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarida mahsulotlar ishlab chiqarishiga hamda eksportiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlandi. Bu omillarga inflyasiya, valyuta kursi, yalpi ichki mahsulot (YAIM) va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar (FDI) tanlab olindi. Inflyasiya bu muomaladagi pul birligining xarid qobiliyatini tushib borishi.Inflyasiya iste'mol narxlari indeksi, ulgurji narxlar indeksi va yashirin narxlar indeksi kabi ba'zi ko'rsatkichlarga ega.

Tadqiqotlar asosida Namangan viloyati eksportini rivojlantirishdagi gipotezalar aniqlandi:

N1: Inflyasiya Namangan viloyati eksportiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

N2: Chet el valyuta kursining milliy valyuta kursiga nisbatan tushib borishi, Namangan viloyati eksportiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

N3: To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar Namangan viloyati eksportiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

N4: Yalpi ichki mahsulotning doimo ko'payishi, Namangan viloyati eksportiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu tadqiqotda miqdoriy usullardan foydalanilgan. Tadqiqotda foydalanilgan ma'lumotlar 2015 yildan 2023 yillar davrlar oralig'idagi Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlaridan foydalanildi. Namangan viloyati eksporti asosiy omillar ta'sirini aniqlash uchun, tadqiqot modeli spesifikatsiyasi eksport (YeXP) ishlab chiqarish inflyasiya (INF), FDI, YeR, va yalpi ichki mahsulot yoki $YeXP = F(INF, YAIM)$ foydalanildi. (3-jadval).

3-jadval

Vektorli xatolarni tuzatish modelining natijasi

Ko'rsatgichlar	Koefisient	T-statistikasi
Qisqa muddat		
CointEq1 or ECT*	-0.90315	-2.62733
D(LNEXP(-1),2)	-0.28416	-1.04098
D(LNEXP(-2),2)	-0.37085	-1.54305
D(LNEXP(-3),2)	-0.11979	-0.6396
D(INF(-1),2)*	-0.04205	-2.0645
D(INF(-2),2)	-0.02196	-1.13531
D(INF(-3),2)	-0.00049	-0.03747
D(LNER(-1),2)	-5761.82	-0.89703
D(LNER(-2),2)	-864.48	-0.15866 D
D(LNFDI(-1),2)	-0.12165	-1.96957
D(LNFDI(-2),2)	-0.06033	-1.19156
D(LNFDI(-3),2)	-0.00205	-0.06799
D(LNGDP(-1),2) *	4.198521	1.81758
D(LNGDP(-2),2) *	3.156927	1.75115
D(LNGDP(-3),2)	-0.34867	-0.27743
Uzoq muddat		
D(INF(-1)) *	-0.058044	-3.83782
D(LNER(-1))	-7857.088	-1.41691
D(LNFDI(-1))	-0.185038	-2.55188
D(LNGDP(-1)) *	7.462824	2.13306
C	-0.098814	-2.44583

*muhim darajadagi kritik qiymatlar 10% %

t-tabel = 1.31784 (1 dumli; 10% ; erkinlik darajasi = 24)

df=n-k qayerda n=40 (ma'lumotlar kuzatuvlar soni) va

k=16 (VECM chiqishi qisqa muddatli o'zgaruvchilar soni)

D(INF(-1)) - inflyasiya, D(LNER(-1)) - savdo aylanmasi, D(LNFDI(-1))

– tashqi investisiya, D(LNGDP(-1))- yalpi ichki mahsulot

Demak, qisqa muddatli tahmin qilingan model natijasi shuni ko'rsatdiki, lag 1-dagi inflyasiya ishlab chiqarish eksportiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatadi, bu

inflyasiyaning 1% o'sishi Namanganda ishlab chiqarish eksportini 0.04205% qiymati bilan kamaytiradi va boshqa o'zgaruvchilarni doimiy ushlab turadi. 1 va 2 kechikishdagi YAIM ishlab chiqarish eksportiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Koeffitsiyent 1 va 2 da YAIMning 1% o'sishi 4.198521% va 3.156927% va tashqi investisiyalarning 1% o'sishi 0,12165% va 0,185038% qiymati bilan ishlab chiqarish eksportini oshishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalarida amaldagi barcha mustaqil o'zgaruvchilar orasida faqat inflyasiya va YAIM Namanganning qisqa va uzoq muddatli ishlab chiqarish eksportiga statistik jihatdan sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, inflyasiya natijalari ishlab chiqarish tannarxining oshishi va valyutaning haqiqiy qadrlanishi, bu mahalliy firmalarning xalqaro raqobatbardoshligini pasaytiradi va firmalarning ishlab chiqarish sohasida ishtirok etishiga to'sqinlik qiladi. Shunday qilib, hukumat inflyasiyaning umumiy darajasini nazorat qilishi kerak.

4-jadval

2018-2023 yillarda tadbirkorlik sub'yektlari eksport imkoniyatini baholashning tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	“FASHION DRESS” MCHJ						“ADXAMBEK TEKSTIL” MCHJ					
			Yillar						Yillar					
			2018	2019	2020	2021	2022	2023	2018	2019	2020	2021	2022	2023
1	Mahsulot sotishdan olingan sof tushum	ming so'm	902450	996028	1120834	1671191	1922518	1915312	275475	815020	703474	1339965	867458	556387
2	Eksportdan tushum	ming so'm	222435	377423	830045	1654828	1881277	1099438	222435	377423	629475	1187772	505847	338806
3	Eksport mahsuloti tannarxi	ming so'm	192334	326010	581032	1158380	1316894	769606	192334	326010	528 759	985 851	414794	271045
4	Ishlab chiqarishga kiritilgan investisiyalar	ming so'm	556081	584845	714869	746210	778925	813074	589243	615076	642042	670190	699572	730242
